

BADIIY MATN TARJIMASIDA MILLIYLIKNI AKS ETTIRISH MUAMMOLARI (XOLID HUSAYNIY ASARI “MING QUYOSH SHU’LASI” MISOLIDA)

To’xtanova Mumtozbegin Ortiqali qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

e-mail: tuhtanovamumtoza@gamil.com

Annotatsiya: Ushbu maqola afg’on-amerika yozuvchisi Xolid Husayniyning “Ming quyosh shu’lasi” asari parchalari va uning rus va o’zbekcha tarjimalari haqida ma’lumot beradi. Maqolada asardagi ba’zi so’z, gap va jumalarning rus va o’zbek tillariga tarjima qilish jarayonidagi o’ziga xos jihatlariga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so’zlar: milliylik, badiiy tarjima, so’z san’ati, asliyat tili, muqobil vosita, tarjima muammolari.

THE PROBLEMS OF REFLECTION OF NATIONALITY IN THE TRANSLATION OF A LITERARY TEXT (IN THE EXAMPLE OF KHALED HOSSEINI’S WORK “A THOUSAND SPLENDID SUNS”)

Tukhtanova Mumtozbegin

Phd student at Namangan state university

e-mail: tuhtanovamumtoza@gamil.com

Annotation: This article provides some pieces of the work of the Afghan-American writer Khaled Hosseini “A Thousand Splendid Suns” and its Russian and Uzbek translations. Translation of some words, phrases and sentences into Russian and Uzbek languages and the specific aspects of this process has been discussed in the article.

Key words: nationality, literary translation, target language, source language, alternative, translation problems.

ПРОБЛЕМЫ ОТРАЖЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОСТИ В ПЕРЕВОДЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ХАЛЕДА ХОССЕЙНИ «ТЫСЯЧА СИЯЮЩИХ СОЛНЦ»)

Тухтанова Мумтозбегим

докторант Наманганского государственного университета

Аннотация: В данной статье приведены некоторые фрагменты произведения афганско-американского писателя Халеда Хоссейни “Тысяча сияющих солнц” и его переводах на русский и узбекский языки. В статье рассмотрены особенности перевода некоторых слов, словосочетаний и предложения на русский и узбекский языки.

Ключевые слова: национальность, художественный перевод, язык перевода, язык оригинала, альтернатива, проблемы перевода.

Kirish

Tarjima murakkab jarayon bo'lib, o'zaro ko'p tomonlama bir necha xalqlar madaniyatlari va ularning tillari ishtirokida bo'ladi. Xalqlar hech qachon birlaridan mutlaq ajralgan holda yashashlari mumkin bo'lmagani singari, ularning moddiy va madaniy yodgorliklari, adabiyoti va san'ati ham hech qachon faqat bir milliy chegara doirasida “sof holda” saqlanib qolmagan. Ko'p asrlik an'anaga ega bo'lgan milliy adabiyotlarning hammasida ham tarjima o'ziga munosib o'rinni egallaydi. Badiiy tafakkur mevasi bo'lmish so'z san'atining tur va xillari, uslub va usullari rang-barang bo'lganidek, uning tarjimasida ham xilma-xil tadbirlar, yo'llar, usul va uslublari mavjud. Bu hol badiiy tarjima oldiga qo'shimcha ravishda yana bir qancha muammolarni ko'ndalang qilib qo'yadi. Tillar orasidagi sof lisoniy farq natijasida badiiy asar tarjimasida o'ziga xos milliy, intonatsiya, uslub va hokazo masalalar ham ko'ndalang bo'lib turadi.

Tarjimon o'zi o'girayotgan kitob matni ichra chegaralangandir. Asardan tashqariga chiqolmaydi, lekin qisqartirishga ham uning haddi sig'maydi. Qisqacha qilib aytganda, tarjimon mavjud narsani faqat tarjima qiladi. Lekin tarjima dargohi

bu qadar chegaralangan bo'lishiga qaramay, u so'z san'ati jumlasiga kiradi. Buning sababi, tarjimon til sohasida ijod qiladi. Tilning asosiy qurilish materiali esa so'zdir. Badiiy adabiyot uchun g'oyatda muhim bo'lgan ko'rsatkichlar – badiiylilik, obraz va obrazlilik, majoz va majoziylik – barchasi so'z zahirida yashiringan, so'zda o'z ifodasini topadi va so'z orqali reallashadi. Binobarin, so'z tanlash badiiy tarjimada birlamchi ahamiyatga ega. Biroq masalaning boshqa tomoni ham bor. Badiiy tarjimada asosiy gap alohida olingan biron so'z yoki jumlaning tarjimon qanday o'girganidagina emas, balki badiiy tarjimada asosiy mezon talqindir. Ushbu jarayon esa uch bosqichda: 1) *asl nusxani tarjimon qanday tushunishi*. 2) *asarning g'oyasi, avtorning maqsad-muddaosi va uning o'ziga xos uslubini qanday talqin qilishi*. 3) *so'z san'ati namunasi o'z ona tilida qayta tiklashda muqobil vosita, tadbir va tadorik topa olishi* bilan amalga oshadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma'lumki, Xolid Husayniyning "Ming quyosh shu'lasi" asari o'zbek tiliga tarjimasi Rustam Jabborov, rus tiliga tarjimasi esa S.Sokolova tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, asar mohiyatini kitobxon-o'quvchilarga go'zal tarzda yetkazib berish uchun tarjimalar ustida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, ushbu asar tarjimalari ustida to'g'ri tadqiqot olib borish uchun kerakli adabiyotlardan foydalanish juda muhimdir. Bunda S.I.Vlaxov va S.P.Florinlarning "Непереводимое в переводе" (2006)[6]; G'aybulla Salomovning "Tarjima nazariyasiga kirish"(2015)[5] va Zohidjon Sadiqovning "Tarjima nazariyasi va amaliyoti"lari (2023)[3] tadqiqotimizda katta ahamiyatga egadir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ba'zi bir xos so'zlar, jumlalarning o'zbekcha va ruscha tarjimalariga alohida to'xtalib o'tilgan. Aniqki, badiiy asarni o'girishda asosiy omil original lug'atini tarjimachi-tilning muqobil-lug'ati bilan almashtirish emas, balki muallifning o'zligi, asar konsepsiyasi, ayni asrda aks etgan so'z san'atini qayta ifodalay olishdan iborat. Badiiy tarjimani ilmiy tavsiflash eng qiyin xossasi shundaki, bunda so'zni-so'z bilan emas, balki ma'noni-ma'no, ohangni-ohang,

obrazni-obraz, yumorni-yumor bilan berish muhim ahamiyatga egadir. Maqola qiyosiy-chog'ishtirma asnosida olib borilgan bo'lib, unda asliyat va tarjima matnidagi tipologik o'xshatishlik va farqlarni ko'rsatish, hamda tarjima usullarini aniqlashdan foydalanildi.

TAHLILLAR NA NATIJALAR

Tarjimada asl nushaning butun borlig'i, uning san'at asari sifatida xarakterlaydigan barcha asosiy belgilar – muallifni boshqa adiblardan yaqqol ajratib turadigan o'ziga xos ovozi, uslubi, “qalamining izi” aks etmog'i darkor. Voqea va manzarani miridan-sirigacha birma-bir tasvirlovchi romanist bilan aksariyat atigi birgina so'z, ramz, timsol, detal vositasida unutilmas obraz, ta'sirchan g'oya yaratuvchi novellist asarlarining tarjimasiga nisbatan bir xil yagona tadbir qo'llab bo'lmasligi aniq. Yozuvchining asarida har bir so'z “otar” ekan, demak, mutlaqo har bir kalimani tarjima qilish lozim, aks holda tarjima “otmaydi”. Shu bilan birga, vaqti kelganda, so'zni, jumlani, gapni “qurbon” qilmay, qo'shmasdan, o'zgartirmasdan tarjima qilib ham bo'lmaydi. Demak, tarjimon kimda, qayerda, qachon, nimani oqizmay-tomizmay saqlash kerak-u, qayerda, nimani qurbon berish, o'zgartirishni bilishi kerak.[4] Holid Husayniyning “Ming quyosh shu'lası” asari o'zbekcha va ruscha tarjimalarida mutarjimlar iloji boricha afg'on hayoti tasvirini, muallif g'oyasini va obrazlarni o'z ona tilisiga tarjima qilib, o'quvchiga yetqizishga harakat qilishgan:

Asliyatda: *Mariam was five years old the first time she heard the word harami. It happened on a Thursday. It must have, because Mariam remembered that she had been restless and preoccupied that day, the way she was only on Thursdays, the day when Jalil visited her at the kolba. To pass the time until the moment that she would see him at last, crossing the knee-high grass in the clearing and waving, Mariam had climbed a chair and taken down her mother's Chinese tea set. The tea set was the sole relic that Mariam's mother, Nana, had of her own mother, who had died when Nana was two. Nana cherished each blue-and-white porcelain piece, the graceful curve of the pot's spout, the hand-painted finches and chrysanthemums, the*

dragon on the sugar bowl, meant to ward off evil.[1]

Ruscha tarjimada: Мариам было пять лет, когда она впервые услышала слово харами. Судя по всему, случилось это в четверг. Уж очень не по себе ей было, она просто места себе не находила. Ведь по четвергам к ним приходил Джалиль. Чтобы скоротать время (вот-вот он появится, помашет издали рукой, подойдет, по колено в высокой траве), Мариам забралась на стул и взяла с полки матушкин китайский чайный сервиз, единственную память после бабушки, матушкиной мамы, которая умерла, когда Мариам было два годика. Нана, мама Мариам, надышаться не могла на бело-голубые фарфоровые чашки в птицах и хризантемах, на чайник с благородно изогнутым носиком, на сахарницу с драконом, призванным отгонять силы зла.[7]

O'zbekcha tarjimada: Марям илк бор «ҳароми» деган сўзни эшитганида беш яшар қизалоқ эди. Хулласи калом, бу ҳодиса пайшанбада юз берганди. Ўшанда унинг эс-ҳуши жойида эмас, ўзини қўйрга жой тополмасди. Ахир пайшанба кунлари уларнинг ёнига Жалил келарди-да! Вақтни тезроқ ўтказиш учун (ҳадемай у узоқдан қўлларини силкитганча, тизза бўйи ўтларни босиб кела бошлайди) Марям стулнинг устига чиқиб олди ва тоқчадаги хитойи чинниларга қўл узатди. Бу чинни сервиз Марямнинг икки яшарлигида дунёдан ўтган бувисидан қолган ягона ёдгорлик бўлиб, ойиси уни кўз қорачигидек асрарди. Нана (Марям ойисини шундай атарди) қушлар ва хризантема гуллари тасвири туширилган пиёлаларни, тумшуги эгик чойнакни, ёвуз руҳларни қувадиган аждар нусхаси солинган қанддонни, ҳатто ишлатишга ҳам қўзи қиймасди.[2] Asar originaliga e'tibor qaratilsa **“haromi”** va **“kulba”** so'zlarini yozuvchi ingliz tilida ekvivalent tarjimalarida emas, balki o'z ona tilidagi ekvivalent so'zlardan foydalanganligiga guvoh bo'lamiz. Buning sababi ushbu so'zlarning ingliz tili ekvivalentlari avg'on hayotini yorqin yoritib berolmasligidan va ifoda etolmaganidan asar muallifi o'z

ona tilidan foydalangan. Va bu soʻzlar oʻzbek tilida ham oʻz maʼnosini saqlab qolgan boʻlib, asarda keltirilgan maʼnolarda ishlatiladi, shu sababli ham bu soʻzlarni oʻzbek tilida qayta yaratishga hojat qolmaganligidan, ularning tarjimai bir muncha yengillashadi. *“Токчадаги хитойи чинниларга қўл узатди”* jumladagi **tokcha** original matnda mavjud emas. Albatda tarjimon bu soʻzni shunchaki qoʻshib qoʻymagan, mutarjim afgʻon hayoti va sharoiti bilan yahshi tanishligi koʻrinib turibti. Oʻzbek tilidagi **tokcha** soʻzi uy ichida devordan boʻrttirib chiqarilgan joyni anglatishi hech kimga sir emas, qadimda bu idish-tovoq terib qoʻyish uchun foydalanilgan. Asar tarjimasida **tokcha** soʻzining qoʻshib qoʻyilishi asarga yanada koʻrk va oʻquvchiga milliylik ruhini bahshida etadi. Endi keying jummalarga eʼtibor qaratsak: *“The tea set was **the sole relic** that Mariam's mother, Nana, had of her own mother, who had died when Nana was two.”* – *“Бу чинни сервиз Марямнинг икки яшарлигида дунёдан ўтган бувисидан қолган ягона ёдгорлик бўлиб, ойиси уни қўз қорачигидек асради.”* Ushbu gapdagi *“the sole relic”* iborasi oʻzbek tiliga *“koʻz qorachigidek asrardi”* iborasiga tarjima qilingan. Ingliz tilidagi **relic** soʻzi qadimdan yodgorlik boʻlib qolgan buyum va narsalarga ishlatiladi, **sole** soʻzi esa **yagona** maʼnosini anglatib, bu ikki soʻzni birlashtirgan holda esa tarjimon **koʻz qorachigidek asraydi** iborasini tanlagan. Buning sababi original matnda chinnilar ota-onadan qolgan yodgorlik deb tasvirlanyapti. Har qanday aziz va yodgorlik boʻlib qolgan narsa-buyumlarni inson koʻz qorachigidek asrab avaylashi tabiiy hol, bundan koʻrinib turiptiki **koʻz** va **qoʻrachigʻ** inson uchun nozik va aziz hisoblanishi tufayli ham oʻzbek tilida ushbu ibora qoʻllaniladi. Ruscha matnda esa bu iborani *“единственную память”* deb toʻgʻridan-toʻgʻti tarjima qilingan. Afgʻoniston va Oʻzbekiston mintaqasida yahsovcchi aholining aksariyati musulmonlar boʻlib, ular qadimdan bir-biriga yaqin millatligi ham sir emas. Shu sababli ham tilmoch uchun afgʻon hayotini oʻzbek tilida tasvirlash ancha qoʻl kelgan.

Yana bir misol uchun “Ming quyosh shu’lasi”ning ikkinchi bobiga e’tiborni qaratsak:

Asliyatda: *To Jalil and his wives, I was a pokeroor. A mugwort. You too. And you weren’t even born yet.” “What’s a mugwort?” Mariam asked. “A weed,” Nana said. “Something you rip out and toss aside.” Mariam frowned internally. Jalil didn’t treat her as a weed. He never had. But Mariam thought it wise to suppress this protest. “Unlike weeds, I had to be replanted, you see, given food and water. On account of you. That was the deal Jalil made with his family.” Nana said she had refused to live in Herat. “For what? To watch him drive his kinchini wives around town all day?”[1]*

Ruscha tarjimada: – Джалиль и его жены видели во мне что-то вроде чертополоха. Бурьяна-чернобыльника. Да и в тебе тоже. Ты ещё и родиться-то не успела, а уже удостоилась презрения. – Что такое чертополох? – спросила Мариам. – Сорная трава, – ответила Нана. Её надо пропалывать. И вон из поля. Мариам тайком насупилась. Чтобы Джалиль относился к ней как к сорняку! Да никогда такого не было! Но она почла за благо промолчать. – Другое дело, что меня как-никак надо кормить-поить. Ведь у меня на руках ты. Ну уж насчет этого он с семейством договорился. По словам Наны, в Герате она жить не захотела. – Чего ради? Смотреть, как он разъезжает по городу со своими женами?[7]

O’zbekcha tarjimada: – Jalil va uning xotinlari uchun men oddiy qichitqio’t yoki ajriqdan boshqa narsa emasdim. Sen ham. Hali tug’ilmasingdan turib ularning nafratini qozongansan! Meni yedirib-ichirish boshqa masala edi. Axir, qo’limda sen bor eding! Keyin bu masalada u uyidagilar bilan kelishib olgan ko’rinadi. Nananing aytishicha, uning o’zi Hirotda qolishni istamagan. – Nima qilaman qolib? Xotinlarini olib, shaharni qanday kezishini tomosha qilish uchunmi?[2]

Original matndagi *“I was a pokeroor. A mugwort.”* **Pokeroor** va **mugwort** soʻzlari insonga nisbatan qiyoslangan boʻlib, **pokeroor** soʻzi aslida zaharli oʻtga nisbatan, **mugwort** soʻzi esa dorivor oʻsimlikka nisbatan ishlatiladi. Oʻzbekcha tarjimasida esa ushbu soʻzlar **qichitqioʻt** va **ajriq** deb berilgan. Tarjimonning **qichitqioʻt** va **ajriq** soʻzlaridan foydalanganining sababi, oʻzbek tilida ushbu soʻzlar insonga nisbatan ishlatilganida nafratlantiruvchi, gʻazabni keltiradigan va keraksiz maʼnolarini anglatadi. Baʼzi hollarda esa tarjimon original matnda berilmagan boʻlsa-da baʼzi soʻzlarni gap maʼnosiga qarab kerakli soʻzlarni tarjima qilinayotgan tilga qoʻshib qoʻyishi mumkin: **“You too. And you weren’t even born yet.” – Sen ham. Hali tugʻilmasingdan turib ularning nafratini qozongansan!** Original matndagi *“Sen ham”* jumlasini – oldingi gapni davomi boʻlib, sen ham ular uchun **qichitqioʻt** va **ajriq** hisoblanasan degan maʼnoni anglatadi. Sen ham shunday hisoblanasan deb tarjima qilishning oʻrniga tilmoch yumshoqroq chiqishligi uchun tarjimon **“ularning nafratini qozongansan”** jumlasini qoʻshib jumla chegarasidan chiqqan, ammo bu bilan muallifdan, asardan, obrazdan uzoqlashmagan, aksincha, muallif talqiniga, maqsadiga yanada yaqinlashgan. Lekin baʼzi joylarda esa tarjimon jumalalarni yoki dialoglarni tarjima qilmay tushirib qoldirgan. Misol uchun original matndagi: **“What’s a mugwort?” Mariam asked. “A weed,” Nana said. “Something you rip out and toss aside. Mariam frowned internally. Jalil didn’t treat her as a weed. He never had. But Mariam thought it wise to suppress this protest.”**[1] jumlar oʻzbekcha tarjimasida berilmagan. Buning sababi, ushbu matn parchasi yosh bola va ona oʻrtasidagi suhbat boʻlib, undagi maʼno oʻzbek mentalitetiga toʻgʻri kelmaganidan, tarjimon ushbu parchani ortiqcha deb hisoblab tarjima qilmagan. Ammo ruscha tarjimasida **“–Сорная трава, – ответила Нана. Её надо пропалывать. И вон из поля. Мариам тайком насупилась. Чтобы Джалиль относился к ней как к сорняку! Да никогда такого не было! Но она почла за благо**

промолчать.”[7] deb to’liq tarjima qilingan. Yuqorida berilgan original matn parchasining keyingi gaplaridagi ba’zi so’zlar ham tarjima matnlarida tushib qolgan:

Asliyatda: *Nana said she had refused to live in Herat. “For what? To watch him drive his **kinchini** wives around town all day?”*

Ruscha tarjimada: *По словам Наны, в Герате она жить не захотела. – Чего ради? Смотреть, как он разъезжает по городу со своими женами?*

O’zbekcha tarjimada: *Nananing aytishicha, uning o’zi Hirotda qolishni istamagan. – Nima qilaman qolib? Xotinlarini olib, shaharni qanday kezishini tomosha qilish uchunmi?* Original matndagi **“kinchini”** so’zi **“A Thousand Splendid Suns Vocabulary”**ga ko’ra haqoratomus so’z bo’lib, *“kinchini – derogatory word meaning prostitute”*ni anglatadi. Ushbu ma’no o’zbek mentalitetiga to’g’ri kelmagani sababli ham tilmoch bu so’zni tushurib qoldirgan. Ammo tarjimon **xotinlarini** o’rniga **xotin-chalarini** degan jumla bilan boshlagani-da edi, original matndagi ma’noga, obrazga yaqinlashgan bo’lar edi. Chunki o’zbek tilida ba’zi narsalarga **-cha** qo’shimchasini qo’shish orqali so’z ma’nosi kichiraytiriladi, lekin insonga nisbatan ishlatilganda esa kinoya va nafratni ifodalaydi.

XULOSA

Xulosa o’rnida ustozim tarjimashunos olim Zohidjon Sadiqovning fikrlarini keltirmoqchiman. “Tarjima nutq faoliyatining shunday birligiki, uni amalga oshirish jarayonida bir tilda yaratilgan matn nutq faoliyati maxsuli sifatida ikkinchi til vositalari bilan qayta yaratiladi. Tarjima qilish uchun esa ekvivalentlikka erishish maqsadida muayyan minimal (eng kichik) tarjima birligini tanlash talabi kelib chiqadi. Tarjima birligi bevosita tarjima jarayoniga taalluqli bo’lganligi bois u o’zgaruvchan xarakterga ega.”[3] Badiiy matn tarjimasi ham adekvat tarjimaga

erishish uchun tarjimondan uzoq vaqt, chuqur bilim va tafakkur, kop izlanishlar, va o'z o'rnida o'sha davr va makon madaniyati, turush-turmushi haqida yetarli tasavvurga ega bo'lishi talab qilinadi. Ayniqsa, badiiy tarjimada milliy xos so'zlarni to'liq o'rganib, tarjima qilinayotgan tilda ekvivalentlarini topa bilish so'ngra tarjima qilish lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) Khaled Hosseini, "A thousand splendid suns" – Bloomsbury Publishing Plc, 36 Soho Square, London W1D 3QY – 2007;
- 2) Xolid Husayniy, "Ming quyosh shu'las". Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. Rustam Jabborov tarjimasi;
- 3) Zohidjon Sadiqov "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi timonidan nashrga tavsiva etilgan – Toshkent: Bookmany nashriyoti, 2023;
- 4) G'aybulla Salomov – "Tarjima nazariyasi asoslari" Toshkent – "O'qituvchi" – 1983;
- 5) G'aybulla Salomov – "Tarjima nazariyasiga kirish" Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2015;
- 6) С.И.Влахов, С.П.Флорин "Непереводимое в переводе" Изд.3-е, испр. И доп.– М.: "Р. Валент", 2006;
- 7) Халед Хоссейни – "Тысяча сияющих солнц": - Пер. с англ. С. Соколов – М.: Фантом Пресс; 2020.